



GEOGRAFIYA FANINING MAKTABLARDA O'TILISH SIFATI

Djurayev Mansur Egamberdiyevich

Guliston davlat universiteti, g.f.f.d., dotsent

Qurbonova Charos Toshmurod qizi

Guliston davlat universiteti 18-21 guruh talabasi

Husenov Jahongir Qo'shmurod o'g'li

GulDU qoshidagi akademik litsey geografiya fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11175348>

ARTICLE INFO

Received: 4th April 2024

Accepted: 6th May 2024

Published: 10th May 2024

KEYWORDS

Xarita, globus, atlas va yozuvsiz xarita, tabiat, transport, ekologiya, suv tanqisligi, Ozon qatlami, geografik maydoncha.

ABSTRACT

Bugunki kunda barcha ta'lim sohalarida yangiliklar va innovatsiyalar ro'y bermoqda. Fanlarni o'tishda yangicha usul va metodlar orqali o'quvchi yoshlarni sohaga bo'lgan qiziqishi, pedagog kadrlar ortirmoqda. Ammo, barcha sohada kamchiliklar bo'lgani kabi, maktab geografiya darslarida ham ayrim kamchiliklarimiz mavjud. Ushbu maqolada anashunday umumta'lim maktablarda geografiya fanining mazmun mohiyati, o'tilish jarayoni va ba'zi bir muammolar haqida so'z boradi.

Har bir maktabda 11 yillik ta'lim tizimida 5-sinfdan to 10-sinfga qadar o'quvchilar uchun geografiya fani mukammal darajada o'rgatilmoqda. Geografiya dars mashg'ulotlarini o'qituvchi yanada qiziqarli va mazmunli olib borishga harakat qiladi. Bunda darsliklar, xaritalar, atlas va yozuvsiz xaritalar, globuslar, texnikaviy asbob-uskunalaridan foydalaniladi. O'qituvchi geografiya dars mashg'ulotlarida mavzuni mazmun mohiyatini yoritib berishda qo'lidan kelgancha harakat qiladi va pedagogik mahoratini ishga soladi, ko'rgazmali qurollardan mohirona foydalanadi. O'zimizning maktabda har doim geografiya dars jarayonlari qiziqarli, amaliy mashg'ulotlarda atlas va yozuvsiz xaritalar bilan ishlash juda maroqli va qizg'in tarzda kechardi. Shuning uchun ham men geografiya o'qituvchilarga havas qilib, shu kasbni tanladim. Lekin, Xalq Ta'lim Vazirining qarorini eshitib tushkun ahvolga tushdim. Ya'ni, geografiya dars soatlarining qisqarishi, bu mening noto'g'ri fikr. Chunki har bir o'quvchi bu fandan yetarlicha bilim, malaka va ko'nikmalarini hosil qilishi kerak. 6-sinfdan nima uchun geografiya fani olib tashlandi? Bu darslikning asosiy mazmuni shundan iboratki, Undan har bir o'quvchi materik va okeanlarning tabiati, jahon xo'jaligida tutgan o'rne, o'rganilish tarixi, u yerlarda qanday xalqlar yashashi haqida, geografik qobiqning xususiyatlari, chegaralari, rivojlanish qonuniyatlari, vertikal va gorizontal tuzulishi to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'ladi. 8-9-sinflarning darsi 2 soatdan edi, 1,5 soatga qisqartirildi. Nima uchun boshqa rivojlangan davlatlar o'zini geografiyasini o'rganadiyu, bizga kelganda O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasini o'quvchilar kamroq o'rganishi kerak? Undan ko'ra, shuncha universitetlar malakali kadrlar yetkazib bermoqda ularni ish bilan ta'minlash kerak emasmi? Shuncha talabalar millionlab kontrakt to'lashmoqda, ertaga ular maktabga 8 soat ishlash uchun boradimi? Bu muammo bitta meni emas ko'pchilikning noroziligiga sabab bo'lmoqda. Masalan,

kundalik turmushimizdagi ishlarimizni rejalashtirishda dastlab ob-havoni bilishimiz muhim bo'lganidek, bolalar dunyoqarashining rivojlanishi va respublikamiz iqtisodiyoti rivojlanishida katta ahamiyatga ega.

Yurtimiz tabiati, yer osti va yer usti boyliklari, ekologiyasi, geologiyasi, suvlari, biosferasi, xalqi, iqtisodiyoti, qishloq xo'jaligi, transporti, tashqi aloqalari, sanoati, turizm, kartografiya kabi tarmoqlarning hammasini o'rganuvchi fan geografiya ekan, nega endi aynan shu fanni qisqartirish kerak? O'zim qishloqda yashaganligim tufayli bu men uchun murakkab muammoga aylandi.

Chekka qishloqlarda o'quvchi soni ozligi sababli 5-10 sinflar bittadan tashkil qilingan. 8 soat geografiya oyligi bilan kim oilasini boqa oladi? Qo'shimcha ishlamoqchi bo'lsa, ta'lim sifatiga ta'sir qiladi. Global muammolardan biri Ozon qatlamining yemirilishi yoki suv tanqisligi inson yashashi uchun ta'sir ko'rsatadi va u juda xavfli. Nima uchun bunday muammolar kelib chiqayotganligini hech o'ylab ko'rdingizmi? Bu insonlarning geografiya faniga e'tiborsizligi emasmi? Bu muammolarni hal qilish geografiya bilan bog'liq emasmi?

Undan ko'ra, o'quvchilarning geografik bilimlarini mustahkamlash, ijodkorligini oshirish, maktab hayoti bilan uzviy bog'lash uchun maktab hududlarida o'qituvchi va o'quvchi hamkorligida – „Geografiya maydonchalar“ tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. O'quvchilarga geografik ta'lim-tarbiya berish, ta'lim sohasida xorij tajribalaridan foydalanish, ta'lim tizimiga ilg'or pedagogik texnologiyalarini tatbiq etish zamon talabidir.

Geografiya ta'limi sohasida, pedagogik va axborot texnologiyalarini rivojlantirish hamda keng ko'lamda qo'llash, dars mashg'ulotlarini noan'anaviy tarzda olib borish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. O'quvchilarga geografik ta'lim tarbiya berish, ta'lim sohasida xorij tajribalaridan foydalanish, ta'lim tizimiga ilg'or pedagogik texnologiyalarini tatbiq etish zamon talabidir. Hozirgi kunda ta'lim sohasiga Internet, virtual ta'lim, masofadan o'qitish va virtual stend texnologiyalari kirib kelmoqda, ulardan samarali foydalanish kerak.

Geografiya ta'limida o'qituvchi o'quvchilarni faollashtiradigan o'zi va o'rganishi qulay bo'lgan usul va uslublarni, o'qitish shakllarini, vaziyatlarni izlaydi, zamonaviy pedagogik texnologiyaga suyanib, o'quv jarayoni samaradorligini oshiradi. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, o'quv jarayonining yuqori sifat va samaradorligiga erishadi. Pedagogik texnologiyalardan foydalanish hozirgi zamon didaktikasi va hozirgi zamon pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli bo'lib, uni geografiya ta'limi tizimida qo'llash va amalga oshirish lozim deb o'ylayman.

Hozirda umumiy o'rta ta'lim maktablarida yangi o'quv dasturlari ishlab chiqilmoqda, mazmunni alohida-alohida fanlar orqali emas, balki integratsiyalashgan ta'lim yo'nalishlari orqali aks ettirishning yangi yondashuvlari ko'rilmoqda. Maktablarning o'quv rejasida o'rganiladigan fanlar soni ko'payib borayotgani, ba'zi klassik maktab fanlarini, jumladan yuqorida aytib o'tganimdek, geografiyani o'rganish vaqtining qisqarib borayotgani ham qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Bu holatlarning barchasi geografiyani o'rganish metodikasi sohasida yangi nazariy tadqiqotlar uchun asos yondashuvlarni talab qiladi. Geografiya metodologiyasida yetarli miqdordagi muammolar to'plangan bo'lib, ular maxsus tadqiqotlarni shakllantirishni talab qiladi. Jumaldan, predmet mazmunida faktlar va nazariy pozitsiyalar o'zaro bog'liqligini aniqlash, geografik bilimlarning shoxlangan tizimini integratsiyalar muammosi, o'quv predmeti mazmuniga mintaqaviy yondashuvni amalga oshirish, metodlarni yangilash, ta'limni tashkil etish vositalari va shakllari.

Oxirgi muammo yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga joriy etish bilan chambarchas bog'liq. Yosh avlod tarbiyasini yangilash o'qitishning noan'anaviy usullari va shakllaridan foydalanishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djurayev, M. E., & Kurbanova, C. T. (2024). PROTECTED AREAS IN WILDERNESS LANDSCAPES AND ENSURING ECOLOGICAL SECURITY IN UZBEKISTAN. Journal of Geography and Natural Resources, 4(01), 146-152.
2. Джураев, М. Э. (2021). ЗНАЧЕНИЕ ГЕОХИМИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В ВЕРТИКАЛЬНОЙ И ГОРИЗОНТАЛЬНОЙ СВЕЗИ ПАРАГЕНЕТИЧЕСКИХ ЛАНДШАФТОВ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ. Экономика и социум, (10 (89)), 636-640.
3. Sattarov, S. M., Khudaykulov, S. I., Djuraev, M. E., & Axunbabaev, M. M. (2018). DETERMINATION OF THE CONCENTRATION OF NON-CONSERVATIVE SUBSTANCES IN A MULTI-DENSITY FLOW. Bulletin of Gulistan State University, 2018(2), 7-12.
4. Djurayev, M., & Husenov, J. (2022). STUDIES IN GEOGRAPHY, CONFLICTS AND SOLUTIONS IN APPLIED GEOGRAPHY. Journal of Geography and Natural Resources, 2(01), 24-28.
5. Baxtiyor o'g'li, R. I. (2023). UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA GEOGRAFIYANI O'QITISHNING ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH.
6. J.G.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. T: "O qituvchi". 2004 y
7. M.T.Mirakmalov, M.M.Avezov, E.Y.Nazaraliyeva. Tabiiy geografiyadan amaliy mashg ulotlar. T: "Fan va texnologiya" nashriyoti. 2015 y.

INNOVATIVE
ACADEMY